



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776(E) | SJIF 2023: 6.907

Xaytbayev Oybek
Allambergenovich

Nukus DPI O'zbek tili kafedrası assistent o'qituvchisi

QORAQALPOQ TILIDAGI FRAZEOLGIK SINONIMLARNING BA'ZI SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada qoraqalpoq tilidagi frazemalarning nutq uslubiga xosligi o'rganilgan. Tilshunoslikda mavjud nazariy fikrlar asosida frazemalarning adabiy, so'zlashuv va publitsistik uslubga tegishli bo'lishlari misollar asosida isbotlangan.

Tayanch so'zlar: frazemalar, frazosinonimlar, adabiy nutq, so'zlashuv nutqi, publitsistik uslub, ekspressiv baho bo'yog'i, funksional-uslubiy bo'yoq.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности словосочетаний каракалпакского языка в стиле речи. На основе существующих теоретических представлений в языкознании на примерах доказывается принадлежность фразеологизмов к литературному, разговорному и публицистическому стилю.

Ключевые слова: фразеологизмы, словосочетания, литературная речь, разговорная речь, публицистический стиль, экспрессивная окраска, функционально-стилистическая окраска.

Abstract: The article discusses the features of phrases in the Karakalpak language in the style of speech. Based on existing theoretical concepts in linguistics, examples prove that phraseological units belong to the literary, colloquial and journalistic style.



Key words: phraseological units, phrases, literary speech, colloquial speech, journalistic style, expressive coloring, functional-stylistic coloring.

Kirish (Introduction). Tildagi frazemalar leksemalardan farq qilgan holda hayotdagi ma'lum bir voqea-hodisani faqat nomlabgina qolmay, shu bilan birga unga nisbatan adresantning modal ma'nosini ham ifodalab keladi. Har bir til lug'at boyligidagi frazemalar ma'lum bir uslubga xoslanganligi bilan ham farqlanib turadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Prof. B.Yo'ldoshev, Prof. Sh.Rahmatullaev, prof. Ye.Berdimuratov, B.Yusupova, Q.Paxratdinov va Q. Bekniyazovlar kabi tilshunos olimlarning olib borilgan tadqiqotlarga suyanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Prof. B.Yo'ldoshev frazeologik birliklarning konnotativ xususiyatlari, ularning ma'lum bir stilda qo'llanilishi haqida fikr yuritar ekan, quyidagicha yozadi: "Frazeologik birliklarning ma'nosi ikki komponentdan iborat: a) ekspressiv-baho bo'yog'i – bu komponent frazeologik birliklarga baholash va boshqa ottenkalarni yuklaydi; b) "funktional-uslubiy bo'yoq" deb nomlash maqsadga muvofiq, chunki bunday deb atash frazeologik birliklarning turli funktsional stillarda qo'llanishini ham o'zida ifoda etadi" [1: 14].

Prof. Sh.Rahmatullaev frazeologik sinonimlarning nutqiy xoslanishi haqida gapirar ekan: "Frazeologik sinonimlar nutqiy xoslanish jihatidan u qadar rang-barang emas: asosan so'zlashuv nutqiga va qisman boshqa nutq ko'rinishlariga xoslangan bo'ladi, – deb ko'rsatadi [2: 114].

Shuningdek, muallif "O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari" nomli monografiyasida frazeologik sinonimlarning nutq ko'rinishlariga xoslanganligi haqida fikr yuritar ekan, ularni umumnutqqa xos bo'lgan iboralar va nutqning ba'zi ko'rinishlariga xos bo'lgan iboralar deb ajratadi hamda o'zbek tili frazeologik sinonimlarining asosiy ko'pchiligini umumnutqqa xos frazemalar tashkil qilishini ta'kidlaydi [3: 122-123].

Qoraqalpoq tilshunosi prof. Ye.Berdimuratov frazeologizmlarning nutq uslublariga munosabati haqida gapirar ekan, ularning bir guruhi og'zaki nutqqa, ba'zilari yozma nutqqa, boshqalari esa og'zaki nutqda ham, yozma nutqda ham qo'llanila beradi, deb ko'rsatadi. Mana shu xususiyatlariga ko'ra frazeologizmlarni uch guruhga ajratadi: 1) umumnutqqa xos frazeologik birliklar; 2) og'zaki nutq uslubiga xos frazeologik birliklar; 3) yozma uslubga xos frazeologik birliklar. Keyingi guruhni o'z ichida: 1. Ijtimoiy publitsistik frazeologizmlar. 2. Ilmiy frazeologik leksika. 3. Maxsus ishlar va ish qog'ozlari uslubiga xos frazeologik so'z birikmalari. 4. Badiiy-belletristik frazeologik leksika deb guruhlaydi [4: 152-156].

Tilshunos B.Yusupova "Qoraqalpoq tilining frazeologiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida frazeologizmlarni nutqiy xoslanish jihatidan quyidagi guruhlarga

ajratadi: 1. Og‘zaki so‘zlashuv uslubiga xos frazeologizmlar. 2. Kitobiy uslubga xos bo‘lgan frazeologizmlar. Ularni o‘z ichida: badiiy uslubga xos bo‘lgan, ilmiy uslubga xos bo‘lgan, publitsistik uslubga xos bo‘lgan frazeologizmlar hamda folklor frazeologizmlariga guruhlaydi [5: 164-170].

Qoraqalpoq tilidagi frazemalar orasida ko‘pchilikni og‘zaki nutqqa xos bo‘lgan frazemalar tashkil qiladi.

Tilda *túyesi tawğa shıǵıw, jıǵısı tawğa shıǵıw, kemesi qırǵa shıǵıw* kabi frazosinonimlari bor. *Kemesi qırǵa shıǵıw* frazemasining semantik mazmunini tilshunos J.Yeshbaev “qattı quwanıw, shad bolıw, jydá kewli tolıw” deb izohlasa [6: 144-145], tilshunoslar Q.Paxratdinov va Q. Bekniyazovlar “talabı kelispedi, jolı bolmadı” deb tushuntiradilar [7: 95].

Qoraqalpoq tilidagi *túyesi tawğa shıǵıw, jıǵısı tawğa shıǵıw, kemesi qırǵa shıǵıw* frazemalari qoraqalpoq xalqining asosan chorvachilik va baliqchilik bilan shug‘ullanganligi, shu sababli milliy madaniyat, turmush tarzi bilan bog‘liq paydo bo‘lgan frazemalar hisoblanadi. Qoraqalpoq tilshunosi A.Pirniyazova shunday yozadi: “Qoraqalpoqlar an‘anaviy tarzda baliqchilik, dehqonchilik, chorvachilik kabi kasblar bilan shug‘ullanib kelgan va hayot kechirish manbai bo‘lgan kasblarga bog‘liq frazeologizmlar paydo bo‘lgan: *Jıluını maylansın* degan ibora baliqchiga *Balıǵing ko‘p bo‘lsin* degan tilak ma‘nosida qo‘llangan. *Qırmanı qızıllansın* iborasi dehqonlarga nisbatan aytilgan. Uning ma‘nosi *hosiling mo‘l bo‘lsin* degani. *Tórt túligiń say bolsın* frazeologizmi chorvaga nisbatan aytilgan. Bu to‘rt tulik mol – yirik qoramol, tuya, yilqi, qo‘y-echki mo‘l bo‘lsin degani, – deb ko‘rsatadi [8: 20].

Túyesi tawğa shıǵıw, jıǵısı tawğa shıǵıw frazemalari semantik tarkibida “xursand bo‘lmoq, sevinmoq” semalari mavjud. Ushbu sema asosida yuqoridagi sinonimik uyaga birlashadi. *Kemesi qırǵa shıǵıw* frazeması tarkibida ikki frazosememani farqlash kerak bo‘ladi. Birinchisida “xursand bo‘lmoq, sevinmoq” semalari qatnashsa, ikkinchisida boshqacha ma‘no ifodalanadi. Ma‘lumki, kema suvda harakatlanadi, u qirga chiqsa harakatlana olmaydi. Shuning uchun uning semantik tarkibida “ishi o‘ngidan kelmaslik, ishi orqaga ketmoq” semalari ishtirok etadi. Birinchi frazosememaga ma‘nodosh sifatida og‘zaki nutqda *Kemesi qırda júriw* frazeması qo‘llaniladi. Frazema semantikasida “xursand bo‘lmoq, sevinmoq” semalari mavjud. Kemasi hatto qirda ham yurib ketganidan, omadi kelganidan sevindi, degan ma‘no anglashiladi.

Qoraqalpoq tilidagi *miyin qaǵıp qolına berdi*, allofrazeması *miyin shaǵıp qolına berdi, miydi jep qoydı, awızı gójedey qaynadı* frazemalari og‘zaki so‘zlashuv nutqida faol ishlatiladi. Frazosinonimlar ma‘no tarkibida “uzoq gapirmoq”, “sergapligi bilan tinglovchini bezdirmoq” semalari mavjud: *Toy bermey teris bergir dep kynde balamnıń miyin jep otır edim. Balam bolsa, qayteyin* (M.Nızanov). *Miyin qaǵıp qolına*

berdi, uning allofrazemasi *miyin shağıp qolına berdi* o‘z ma’nosida qo‘llaganda hayvon miyasiga nisbatan ishlatiladi. Odatda mehmonlarga mol, qo‘y, echki so‘yilib, ovqat tayyorlashda bosh ham alohida pishirilib, dasturxonga qo‘yiladi. Bosh eng hurmatli mehmonning oldiga qo‘yiladi va miyasini olish uchun uni qoplab turgan suyaklar qoqilib, yoki danakka o‘xshab chaqilib, miya chiqarib olinadi va mehmonlarga tarqatiladi. Frazeologik chatishma asosida hosil bo‘lgan mazkur iboraning ma’nosi “miyaga gap bilan ta’sir qilish orqali tinglovchini bezor qilish, gapning ko‘pligi, me’yoridan ortiqligi, takroriyliigi” semalari asosida paydo bo‘lgan. *Miydi jep qoydi* frazemasi ham frazeologik chatishma asosida paydo bo‘lgan. Bunday ma’no oldingi iboraga nisbatan ham kuchli:

Shag‘im xat jazayin, tilegim keyin,

Gaz, gaz-dep búginde miyindi jeyin (Aydosbiy).

Awzi gójedey qaynadi frazemasida *góje* so‘zi don, guruch qo‘shib tayyorlanadigan suyuq ovqat turini bildiradi. Ovqat qaynaganda issiqlik ta’sirida bir qancha joydan havo pufakchalari yoriladi va ovoz chiqadi. Odamning tez, beto‘xtov gapirishidan chiqadigan ovoz go‘ja qaynaganda chiqadigan ovozga o‘xshatilishi negizida mazkur frazema shakllangan. Ovoz tarkibida “yoqimsizlik”, “tezlik”, “ko‘plik” semalari ma’no ko‘chishida rol o‘ynagan:

Qiyt yetkennen awızın qaynap gójedey,

Shıǵa keldin háker sózdi boratıp (A.Qayıpov).

Qoraqalpoq tilida *bası aspanǵa jetti* frazemasining *bası kókke jetti*, *bası aspanǵa* allofrazemalari, *awız qulaǵına jetti* frazemasining *awız eki qulaǵında*, *awız qulaǵında*; *terisine sıymay ketti* frazemasining *terisine sıymadı* allofrazemalari mavjud. Misollar: *Ol buǵan tóbesi kókke jetkendey quwanıp, ornınan órre ushıp turıp sıpanın qoyıw sayalı payızlı jerine salınǵan kórpesheden orın kórsetti.* (Ó.Xojaniyazov). *Doxod bóliminde, jıldıń juwmaǵında basqarmada bolǵan ulıwma jıyınqta baslıq hámmenín kózinshe Jahangirdi aspanǵa shıǵarıp maqtap, tóbesin kókke jetkerip tasladı.* (Ó.Xojaniyazov). *Bası aspanǵa jetti, tóbesi kókke jetti, awız qulaǵına jetti, terisine sıymay ketti* frazemalari semantik tarkibida “Nihoyatda xursand bo‘lmoq, behad xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtira olmaslik” semalari mavjud. Frazosinonimlar asosan adabiy nutqqa xos.

Qoraqalpoq tilidagi *kewili al-aspanǵa*, *kewili alıp ushıw* frazosinonimlari semantik tarkibida «xursand bo‘lib, benihoya ruhlanmoq» semalari mavjud. Misollar: *Átirapına kóz juwrtırıp otırǵan Ajar da jorǵa súrip sherin tarqatıp kiyatırǵanday kewili al-aspanǵa.* (K.Sultanov “Aqdárya”. 112-bet). *Sonlıqtan ba, atlardıń shulǵıp ayaq basqanına súysinip, kewili alıp ushadı.* (K.Sultanov “Aqdárya”. 113-bet). Frazosinonimlar asosan og‘zaki nutqda qo‘llaniladi.



Xulosa (Conclusion). Frazemalar xalq tilidagi eng badiiy, obrazli, chuqur ma'noga ega bo'lgan, ta'sirchan, tayyor turg'un birikmalar hisoblanadi. Ular xalq hayotida uzoq o'tmishda yuz bergan tarixiy voqealarning, eski urf-odat, dasturlarning qoldiqlarini o'zida saqlaydi. Shuningdek, ota-bobolar shug'ullangan kasb-hunar turlarini, ularning hayvonot olamiga bo'lgan munosabatlarini o'zida aks ettiradi. Til lug'at tarkibida badiiy tasvirning o'ziga xosligi, fikrlarni obrazli turda ifodalashi, nutqni bezashi bilan ajralib turadi. Ular nutq uslublariga ko'ra ham o'zaro farq qiladi. Frazemalarning ko'pchiligi asosan og'zaki nutqqa xos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo'ldoshev B. Frazologik uslubiyat asoslari. –Samarqand, 1998. –S. 14.
2. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. –S.114.
3. Rahmatullayev Sh. O'zbek frazeologiyasining ba'zi masalalari. –Toshkent: Fan, 1966. –S. 122-123.
4. Yesemurat Berdimurat uli. Házirgi qaraqalpaq tili. Leksikologiya. –Nókis: Bilim, 1994. –B. 152-156.
5. Yusupova B.T. Qaraqalpaq tiliniń frazeologiyası. –Tashkent: Tafakkur bo'stoni, 2020. –B. 164-170.
6. Yeshbayev J. Qaraqalpaq tiliniń qisqasha frazeologiyalıq sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 1985. – S. 144-145.
7. Paxratdinov Q., Bekniyazov Q. Qaraqalpaq tiliniń frazeologizmler sózligi. – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2018. – S. 95
8. Pirniyazova A. Qoraqalpoq tili frazeologik sistemasi va uning stilistik imkoniyatlari. Filol. fan. dokt. (DSc) ...diss. avtoref. – Nukus, 2020. – S. 20.